



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)

JIZZAX-2026

9. O'ngarova, O., & Teshaboyeva, N. (2024). "The impact of global languages on local cultural identity." *ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research*, 1(5), 112–115.
10. Graddol, D. (2006). *English Next: Why global English may mean the end of "English as a Foreign Language"*. British Council.
11. Тешабоева, Н. (2023). "Teaching writing as a major part of productive skills in mixed ability classes." *Информатика и инженерные технологии*, 1(2), 652–656.
12. Teshaboyeva, N., & Xatamova, M. (2024). "Analyzing language in social interaction: Pragmatics, speech act theory and discourse analysis." *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(11), 329–336.
13. Teshaboyeva, N., & Ollayorova, M. (2024). "The role of technology in teaching listening." *Молодые ученые*, 2(34), 46–51.
14. Teshaboyeva, N., & Pardayeva, R. (2025). "The role of fluency and accuracy in speaking." *ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research*, 2(5), 280–286.
15. Zubaydul, T. N. (2025). "Using storytelling to enhance speaking fluency." *SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY*, 3(30), 43–47.

NOSIR FOZILOVNING SUJET VA KOMPOZITSIYA YARATISH MAHORATI

Lutfullayev Jaxongir Amirovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek bolalar nasrining yetuk vakili Nosir Fozilovning "Saraton", "Qorxat" qissalari X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi" romanlari bilan qiyosiy tarzda o'rganilib, yozuvchining sujet va kompozitsiya yaratish mahorati tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: o'zbek bolalar adabiyoti, sujet, kompozitsiya, bolalarbop sujet va kompozitsiya, sujet va kompozitsiya yaratish mahorati.

Millionlab kitobxonga yetib boradigan asar yaratish ijodkordan ulkan mehnat va mas'uliyat talab etadi. Kattalar biror badiiy asarni o'qiganida hayot haqiqatiga to'g'ri kelmaydigan fikrlarga duch kelsa, nari borsa, kitobni o'qimay qo'yishi, qo'l siltab qo'yishi, yozuvchiga nisbatan biroz e'tiroz bildirishi mumkin. Bolalar uchun ijod qiladigan ijodkor bunday xatolarga yo'l qo'yishi mumkin emas, chunki ular yosh qalblarni o'zlari yozgan asarlari bilan, birinchidan, bolalarni badiiy adabiyotga olib kirsam, ikkinchidan, kattalar adabiyotiga o'tish uchun ko'prik vazifasini bajaradilar. Shu bois bolalar adabiyotiga nisbatanpanja orasidan qarash yaramaydi. "Bu adabiyot – hurmattalab adabiyot, e'zoztalab adabiyot. Chunki bolalar uchun yozilayotgan har bir asarda o'zing bolaga aylana olmas ekansan, u jonsiz tanaga aylanadi. Qattiqroq qilib aytganda, birovnikini olib yopishtirsangiz, yopishmay turadi, yamoq bo'ladi. Bolaning ko'ngli ham shunday. Uni sindirib bo'lmaydi"[1].

Nosir Fozilovning ushbu fikrlarida jon bor. Bolalar uchun yaratilgan asarlar pishiq, puxta, tarbiyaviy ahamiyati katta, qiziqarli bo'lishi bilan birga, sujet va kompozitsiyasi ham bolalarbop bo'lishi lozim. Agar asar har qancha qiziqarli bo'lmasin, tarbiyaviy ahamiyati kuchli bo'lmasin, sujeti, kompozitsiyasi bola tabiati uchun mos bo'lmasa, bunday asarni bolalar sevib o'qimaydi. Bunday asar bolalar qalbiga singishib ketmaydi. Shuning uchun bolalar yozuvchisi sujet va kompozitsiyani bolalarbop yaratishi maqsadga muvofiqdir. "Adabiyot yaratiladi, uni "yasab" bo'lmaydi. Bu tom ma'noda, ham bolalar, ham kattalar adabiyotiga taalluqlidir"[1].

Biz yuqoridagilarni hisobga olib, maqolada bolalarbop sujet va kompozitsiya yaratishda yozuvchining (Nosir Fozilovning) individual yondashuvi masalasini tahlil etishni maqsad qildik.

"Saraton" qissasini xotirlasangiz, G'iyos aka, To'ra, Kamolalarning (garchi To'ra va Kamola maktab o'quvchilari bo'lishsa-da) mol boqishlari, Kamolaning maktabda yetakchilik qilishi, oltinchi sinf o'quvchilariga bosh bo'lib dalada boshqoq terib xirmonga olib kelishi, To'ra o'ziga o'xshagan Frantishek, Sergey kabi bolalar bilan eshak karvon tuzib shaharga don topshirishga qatnashlari, qo'lga qurol ko'tarishga yaraydigan barcha frontga jalb etilib, yosh-yalang, xotin-xalaj butun turmush og'irliklarinibo'yinlariga olib mehnat qilishlari bilan bog'liq voqealar, ularning tafsilotlari qissaning sujeti hisoblanadi.

"Adabiyotning uchinchi elementi sujet" (M.Gorkiy) hisoblansa, uni harakatga soluvchi kuch konfliktidir.

"Saraton" qissasida ijtimoiy konflikt – asar qahramonlari bilan ular yasayotgan sharoit o'rtasidagi kurash tasvirlanadi. Front orti hayotining og'irligi, ayollar erlarini frontga jo'natib ham ota, ham ona bo'lib farzandini tarbiyalagani, bu ham yetmagandek tong qorong'usidan shomgacha tinim bilmay mehnat qilgani, Kamolaga o'xshagan qizlar ham qiz bola ekanini unitib, "ro'dapo ust-boshlarda yurib, "Abdikamol" degan ismni orttirishi, Zulayho xolaga o'xshagan ayollarning beva qolishi – umuman olganda, front orti hayotining zahmatlari asardagi ijtimoiy konflikt sifatida sujetni harakatga keltirib turadi.

Qissaning ekspozitsiyasida asar voqealari kechadigan asosiy joy sifatida dalalar tasvirlanadi.

"Arpa boshqoqlari sarg'ayib, bug'doy boshqoqlariga rang kira boshlagan, qovun palaklari tanob yozib, tuynaklar etik boshiday bo'lib qolgan palla..."[2.92]

Parchadan ko'rishimiz mumkinki, asar qahramonlari arpa, bug'doy o'rimida ishtirok etishi, qovun chopig'i, boshqoq terish kabi dala yumushlari bilan erta-yu kech band bo'lishlarini yozuvchi aynan ekspozitsiyada tasvirlab ko'rsatadi va fikrini davom ettirib "Dehqonlarning tili bilan aytganda: yo'g'on cho'zilib, ingichka uziladigan payt", - deya izoh berib, qilinadigan ishlarning sanog'i yo'qligi, bu ishlar ayollar, bolalar uchun og'irlik qilishini ta'kidlab o'tgandek, nazarimda. Aynan asar voqealari ham, asar qahramonlarining hayoti, munosabatlari, o'zlari yashayotgan ijtimoiy hayot bilan kurashlari ham ana shu dalalarda kechadi. Yozuvchining yutug'i shundaki, jon-jonivorlar o'zlarini qo'yishga joy topa olmaydigan ana shunday issiq saratonda To'ra, Kamola, Sergey, Frantishek kabi yoshlar chang yutib, biri mol boqib, boshqasi bug'doy o'rimida ishtirok etib chang yutishga majbur ekani, sharoitning og'irligi, mehnatning ko'pligini ekspozitsiyadagi birgina jumlada keltirib o'tadi:

“Bizning Kamola bilan To‘ra uchun chinakam mehnat endi boshlanib kelayotgan edi”[2.92].

Aslida asar To‘ra va Kamolalarning bir-biriga bo‘lgan do‘stligi, muhabbatiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, saratondagi bir oylik mehnat sharoitini tasvirlash orqali front ortida xizmat qilayotgan bolalarning yelkalariga tushgan og‘ir yukni tasvirlashdan iborat bo‘lgan.

Asarning tuguni ishga yaroqli erkaklarning barchasini frontga jo‘natib, qolgan G‘iyos akaga o‘xshaganlardan kolxoz ishlarida foydalanib yurilgani, garchi G‘iyos akaning ko‘zidan doim yosh oqib tursa-da, G‘iyos aka, Nusrat ferma, Abdusamat traktorchi, Karim juvovzkashning o‘g‘li Roziqlarga poveska kelishidan boshlanadi. Ya’ni sharoit o‘zi og‘ir, ular ketsa yana ham ishchi kuchi kamayib, yoshlarning zimmasidagi yuk ortishi bilan asar tuguni boshlanadi. Ular ketsa nima bo‘ladi?

Biz asardagi sujetning tarkibiy qusmlariga batafsil to‘xtalmay, asar so‘ngidagi yechimga diqqatimizni qaratamiz. Eshak karvonda shaharga don tashib kech qaytgan To‘ra xirmon yonida yotib uxlab qoladi.

“U tush ko‘rdi: tushida dadasi parquvdek yumshoq bulutlar ustida oppoq otga minib, qandaydir ikki shohlik bahaybat hayvonni quvlab yurganmish... Dadasi boyagi bahaybat hayvonga yetib, qo‘lidagi qilichini siltagan ekan, bir shoxi jarang-jurung qilib uchib tushganmish...”[2.199] Ushbu tush tasviri orqali urush nihoyalayotgani, bahaybat hayvonning shoxini qilich bilan chopib tushirish orqali yana tinch zamonga qaytishimiz, shunda To‘ra va Kamolalar birga bo‘lishi mumkinligi tasvirlangan bo‘lsa, uchrashuvda shahardan olib kelgan sovg‘asini topshira olmaganidan o‘kinib, Kamola u uchun har qanday sovg‘adan ham bebaho, yorqin, pokiza tuyg‘u – muhabbatini hadya etib ketganini sezmay qolishi tasviri orqali ikkala yoshning kelgusida birga bo‘lishi, muhabbatlariga yetishishini o‘qib o‘quvchi dildan quvonadi, uzoq sahifalardan kutayotgan yoshlarning baxtidan sarmast bo‘lishi, ko‘zidan quvonch yoshlarining chiqishi tabiiy. Chunki bu yoshdagi o‘quvchilar hissiyotga boy, ta’sirchan, shu bilan birga muhabbatga qadam qo‘yqiyotgan yoshdagi yoshlar bo‘lishadi.

“Badiiy asar sujeti va kompozitsiyasi xuddi mazmun va shakl kabi alohida-alohida vositadir, ayni paytda, ular o‘zaro bog‘liqdir: sujet kompozitsiyaning ichida yashaydi, kompozitsiya sujetning vujudi hisoblanadi. Demak, jon va vujud birlashsagina ruh tiriladi, yashaydi, faoliyat ko‘rsatadi”[3.142].

Nosir Fozilov asarlarining o‘qishli bo‘lishini ta’minlagan vositalardan biri qiziqarli sujet bo‘lsa, ikkinchisi bolalarbop kompozitsiya hisoblanadi. Ular o‘zaro mutanosiblik hosil qilib, betakror asarlar yuzaga kelgan. Shu bois asarning kompozitsiyasiga ham bir nazar tashlaymiz.

Yozuvchining “Qorxat” qissasida har bir bob bobning mazmunidan kelib chiqib nomlangan bo‘lsa, “Saraton” qissasida boblar “Birinchi bob”, “Ikkinchi bob” ko‘rinishida raqamlangan. Qissa o‘n bir bobdan iborat.

“Asar sarlavhasi bir yoki bir necha so‘zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan mazmunni o‘zida aniq mujassam etishi, nomlanishidanoq o‘quvchini o‘ziga jalb qilishi lozim”[3.136]. Nosir Fozilovning asarlarida ham ana shu talab asosida birgina so‘z sarlavha qilib tanlangan, “Qorxat”, “Saraton” degan sarlavhani o‘qiboq o‘quvchida asarga nisbatan qiziqish uyg‘onadi.

“Saraton” qissasiga Abayning quyidagi to‘rtligi epigraf qilib ilingan.

Sevgi tili so‘zsiz til,
Ko‘z bilan ko‘r, dildan bil.
Bir qarash yo bir imo
Bilan bog‘lanar ko‘ngil.

Epigraf asar mazmuniga juda mos, asarning hech qaysi o‘rnida To‘ra va Kamola o‘rtasida o‘ldim-kuydim deb ayuhannos solinganini ko‘rmaysiz, lekin epigrafda keltirilganidek, ular bir-birlari bilan ko‘z qarashlari, imolar orqali tushunishadi, dildan his qilishadi.

Qissaning ikkinchi bobiga e‘tibor qilsak, G‘iyos akaning harbiy komissariyatga borgani, u yerdagi harbiylar bilan suhbatiga ko‘zimiz tushadi. “Tepakal harbiy G‘iyos akaning biletini bir boshdan varaqlab ko‘ra boshlad: uning tepa qismi – tug‘lgan yili-yu, ismi sharifi yozilgan joyi yo‘q edi. Buyog‘ini G‘iyos akaning o‘zidan so‘rashga majbur bo‘ldi:

-Familiya?

-Otangizning ismi nechik?- gapga aralashdi hamshira.

-Mamasoli.

-O‘zingizniki?

-G‘iyos.

-God rojdeniye?- dedi tepakal harbiy xuddi hamshiraning yoshini so‘rayotganday unga qarab.

-Tug‘lgan yilingiz?- dedi hamshira ham o‘z navbatida G‘iyos akaga qarab.

Shu joyga kelganda G‘iyos aka biroz tutilib qoldi.

-Tug‘lgan yilingizni so‘riy.

-Abdalim bilan tengman, - dedi G‘iyos aka, - anu, Korizdagi Abdalim bor-ku...”[2.108]

Ushbu parchani batafsil keltirishimizdan maqsad shuki, G‘iyos akaning soddaligini ko‘rsatadigan bu parcha asarning birinchi bobida G‘iyos akaning To‘radan yoshini so‘raganida, To‘ra tilidan “Abdug‘ani bilan tengman”, - deb eslanadi. Yozuvchi sujet voqealarini orqaga qaytarish orqali G‘iyos akaning soddaligini ifodalash, kulgu yaratishga erishgan. Bu ham bolalar uchun yaratiladigan asarlarda asarning jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Aslida yuqoridagi parcha G‘iyos akaning birinchi marta harbiy ko‘rikka borgandagi voqealar sifatida ikkinchi bobda keltirilgan bo‘lsa-da, birinchi bobda ikkinchi marta chaqiruv qog‘ozi kelishi tasvirlanadi, uchinchi bobda asar voqealari davom etadi. Yozuvchining bu uslubi kata maktab yoshidagi bolalar uchun kelgusida kattalar adabiyotini tushunish uchun zamin tayyorlagan, chunki bolalar uchun yaratilgan asarlar bilan kattalar uchun yaratilgan asarlarning sujet va kompozitsiyasi bir xil bo‘lmaydi. Qissaning ana shu o‘rinlarida yozuvchining mahoratini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Qissaning oltinchi bobini o‘qisak, Kamolaning Zulayho xolaning haqoratidan o‘ziga kela olmay, boshi g‘ovlab mazasi bo‘lmaganini, To‘raning onasi kelgani, ikki dugona suhbat qilgani, ertalab To‘ra va Sergey podani haydab, Kamolaning “ola”sini qo‘shib ketgani tasvirlanadi. Xuddi shu tasvirlarga diqqat qilsak, Kamolaning sigiridan boshqa hammaning mollarini yig‘ib kelgan To‘ra Kamolalarning darvozasi oldida to‘xtab qolgani, Kamola majbur sigirini andisha bilan tashqariga haydab chiqqani

tasvirlanadi. “U “ola”sini sal nariroqqa haydab sigirlarga qo‘shmoqchi edi, daf‘atan oldidan To‘ra chiqib qoldi. Kamola nima qilishini bilmay, unga qarab jilmaydi. To‘ra ham biroz o‘zini yo‘qotib qo‘ydi, so‘ng o‘ziga kelib “ola”ni oldiga soldi-yu, indamay haydab ketdi...”[2.141]

Shundan keyin Kamolaning qisqagina To‘raga achinishi bilan bog‘liq o‘y-xayollari, kattagina hovlida bo‘m-bo‘sh uyda yuragi siqilib ko‘chaga chiqqani, xayoliga bugun G‘yos akalarning harbiyga ketishini eslab idoraga kelib qolgani va shu bilan bir qancha voqealar tasvirlanadi.

Biz yuqorida yozuvchining asarning keyingi bobidagi tasvirlarni (hali bo‘lmagan voqealar tasvirini) unda oldingi bobda eslaganligini aytgan edik.

Bundan farqli ravishda oltinchi bobda bir qancha voqealardan keyin, yettinchi bobning bir necha sahifalaridan keyin oltinchi bobdagi Kamolaning “ola”ni podaga qo‘shishi bilan bog‘liq qisqagina voqealar tasvirining batafsil bayoni keltiriladi.

Ana shu lavhaga diqqatimizni qaratsak. “Oyimlarning aytishlariga qaraganda, Kamola kasal bo‘lib qolganmish. Shuning uchun kecha chiqolmagan. Bugun tuzuk bo‘lib qolgandir, chiqar... U shu xayolda turar ekan, anchagina sigir to‘planib qolganini sezmad ham. Uning ko‘ngli, ko‘zi hamon o‘sha yoqda. U esa ko‘rinmaydi. Poda ketadigan mahal ham bo‘lib qoldiki, undan darak bo‘laveradi. Odatda, Kamolaning “ola”sidan boshqa birovniki bo‘lib, o‘z vaqtida olib chiqishmas, kutib o‘tirmay podani haydab ketaverishgan bo‘lardi. Bugun jo‘nash vaqtidan ancha vaqt o‘tib ketdi, u esa hali ham nimaningdir ilinjida turar, Kamolalarning darvozasidan ko‘zini uzmas edi. Bir mahal darvoza qiya ochilib yopilganday bo‘ldi. Yuragi orziqib ketdi. Keyin tag‘in darvoza lang ochilib, ichkaridan avval ola sigir, keyin, keyin... boshqa birov chiqdi. Bu kim bo‘ldi ekan? Rizvon kelinoyining o‘zi desa, boya ketmonini yelkasiga tashlab, ishga ketganini ko‘rgandi. To‘ra beixtiyor o‘sha yoqqa qarab yurdi: qaysi ko‘z bilan ko‘rsinki, taniyolmay qolgani – Kamola ekan”[2.141]

Ushbu parchani batafsil keltirishdan maqsad, oltinchi bobdagi yuqoridagi holatning to‘liq tafsiloti bilan qisqagina tanishtirish edi.

To‘ra bilan Kamolaning bu kutilmagan uchrashuvini keyingi bobda to‘liq sharhlab o‘tish orqali yozuvchi yoshlarning bir-biriga bo‘lgan samimiy muhabbatini, hozirgi ayrim yoshlarga o‘xshab dahmaza bilan sevgi degan so‘zga ham isnod keltirib, atrofdagilar oldidagi behayolarcha yurmay ham ko‘z qarashlar, bir-biriga termilishlar, qalb yaqinligi bilan sevgining haqiqiy qiyofasini tasvirlab bera olgan. Garchi bir bobda bir voqea qisqa keltirilib, keying bobda bir qancha voqealardan so‘ng batafsil shu voqea yoritilgan bo‘lsa-da, bu asarning ko‘rkiga putur yetkazmay, ko‘rk qo‘shgani, yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini ta’kidlash uchun xizmat qilgan.

Nosir Fozilov asarlarini o‘qir ekansiz, har bir asarining sujeti, kompozitsion qurilishi o‘ziga xos ekanini, sujet voqealari, kompozitsion qurilishi bolalarbop ekanligining guvohi bo‘lasiz. Biz fikrimizni yozuvchining “Qorxat” qissasi bilan davom ettiramiz.

“Qorxat” qissasining “O‘zim haqimda” bobi bilan tanishadigan bo‘lsak, asar voqealari asar qahramoni Sog‘indiq o‘zini tanishtirishdan boshlanganini ko‘ramiz.

“Gapni cho‘zib o‘tirishni yoqtirmayman. Qisqa qilib aytib qo‘ya qolay: yozuvchi bo‘lmoqchiman! To‘g‘risi, ilgari yozuvchilikdan sal ko‘nglim qolgan edi. Axir o‘zingiz o‘ylab ko‘ring: kecha-yu kunduz xayolingizda yozuvchi bo‘lishdek yuksak

orzu bo'lsa, tinmay mashq qilsangiz, yozgan she'rlaringiz, hikoyalaringiz siz o'qiyotgan maktabda ovoza bo'lib ketsa, devoriy gazetada ishlaydigan bolalar, g'uj-g'uj bo'lib yugurib yursa, "falon ikkichi bola haqida she'r yozib ber", deb yalinsa-yu, sinfimiz rahbari birdan idoraga chaqirib olib, "Darslardan mazang yo'q, avval dars, keyin shoirlik!" deb qiynovga olsa! Shu ham gap bo'ldi-yu!"[4.8]

Yozuvchining asar qahramonini muallif tilidan emas, asar qahramonining o'zini o'zi tanishtirish uslubi yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarining uslubiga o'xshash. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib"[5], "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi"[6] asarlaridagi asar qahramonlarining o'zini tanishtirishi Nosir Fozilovning "Qorxat" qissasida ham ko'zga tashlanadi.

Diqqat qilaylik.

"Tanishib qo'yaylik: otim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo'lsangiz Hoshimjon deb aytasiz, Familiyam- Ro'ziyev, Ro'zivoy traktorchining o'gliman. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ham ikki-uch og'iz so'zlab o'tsam: dadam ikki-uch yildan buyon cho'lda bulldozer haydab yer tekislaydi, oyimning aytishiga qaraganda, o'sha tomonlarga ham paxta ekarmish...

Rostini aytsam, o'zim unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o'quvchilaridanman"[5.4].

"Sariq devni minib" asari qahramoni Hoshimjon o'zini qanday tanishtirsa, "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi" asari qahramoni Akbar ham o'zini xuddi shunday tanishtiradi. Har uchala asarning boshlanishi xuddi ertaklardagi "Bir bor ekan, bir yo'q ekan" deb boshlanishga o'xshaydi. Asar qahramoni Akbar bilan tanishib olamiz.

"Gap qo'shmay tursangiz, hammasini bir boshdan so'zlab beraman, bo'lgan voqea qanday yuz bergan bo'lsa, qasam ichib aytamanki, hech narsa qo'shmasdan, hech narsani olib tashlamasdan shundayligicha aytaman...Hoshimni taniysizmi? Yo'q taniysiz. Hozir esingizga tushiraman. Uning to'g'risida To'xtaboyev degan yozuvchi kitob ham yozgan... Lekin Hoshimning ...Akbar yaxshi o'qiy olmay, oltinchi sinfda qolib ketdi, degani g'irt yolg'on. To'g'ri, men o'sha yili oltinchi sinfda qolib ketganman, lekin yomon o'qiganim uchun emas, yo'q, zinhor bunday deb o'ylamang"[6.8-9].

Mana har uchala asardan qahramonlarning o'zini tanishtirish holati bilan tanishdik. Yozuvchi Nosir Fozilov Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari uslubidan foydalanganligining sababi shuki, birinchidan, har ikkala yozuvchi bir makon va zamon farzandi sifatida bir-birining asarlari bilan tanish bo'lib, ijodiy foydalangan bo'lsa, ikkinchidan, e'tibor berilsa, har uchala asar qahramonlari ham oltinchi, yettinchi sinf o'quvchilari, yuqoridagi uslub shu yoshdagi bolalar ruhiyatiga, yoshiga mos bo'lganligi bois ham har ikkala ijodkor asar boshlanishida asar qahramonlarini muallif tilidan emas, qahramonning o'zini o'zi tanishtirish yo'lidan borishgan. Bu albatta o'zini oqlagan.

Nosir Fozilov xuddi shu uslubdan Sog'indiqning ota-onasini tanishtirishda ham foydalanadi.

"Dadam rayon kasalxonasida bosh vrach bo'lib ishlaydi. Ismi Murod, familiyasi Qurbonnazarov. Ishxonasidagi odamlar uni Murod G'oirovich deb chaqirishadi. Oyim ham dadam bilan birga... Oyjamol Quvondiqova! Bolalar vrachi"[4.9].

Bunday tanishtirish uslubi, birinchidan, bolajonlar uchun qiziq, chunki o‘zi bilan teng bola tildan bayon etilishi ular ruhiyati uchun ham mos. Ikkinchidan, muallif nutqidagi bayonchilik uslubidan ko‘ra samaraliroqdir.

Qissaning sarlavhasiga e‘tibor qilgan o‘quvchi qorxat, nima u?- degan fikrga keladi, qiziqish uyg‘onadi. Qordan qanday qilib xat yozish mumkin, degan fikrlar ongi shuurini qamrab oladi. Butun vujudi bilan asarni o‘qishga, o‘zida paydo bo‘lgan savollarga javob topishga oshiqadi, diqqati yanada ortadi. Shuni hisobga olib yozuvchi qissaga o‘zbek xalq bolalar mavsumiy o‘yinlaridan biri bo‘lgan “Qorxat” o‘yining nomini sarlavha qilib tanlagan.

“Qorxat” qissasi o‘n bobdan iborat bo‘lib, “O‘zim haqimda”, “Qalli otani izlab”, “Tanishuv”, “Qorxat”, “Ov rejalari”, “To‘qayda”, “Oqdaryoda”, “Muz qayiq”, “Sog‘ase” orolida”, “Va nihoyat” kabi boblarni o‘z ichiga oladi. Asarning “O‘zim haqimda” bobi muqaddima, tanishtiruv bobi sifatida keltirilgan bo‘lsa, “Qalli otani izlab” bobi asardagi tugunni yuzaga keltirgan. Oxirgi “Va nihoyat” bobigacha bo‘lgan voqealar tasviri voqealar rivoji va kulminatsiyani tasvirlasa, yechim oxirgi bobda yuzaga chiqadi.

Asar yettinchi sinf o‘quvchisi Sog‘indiq tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi davr voqealarini, tabiiat tasvirlarini bola qalb prizmasidan o‘tkazib tasvirlaydi, biroq bunda obektivlikni nazardan qochirmaydi, yosh qahramon bilan birga sevinib, birga qayg‘uradi, bu esa asarning o‘quvchi uchun ham “yuqumliligi”ni oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Nosir Fozilov yaratgan barcha asarlarning sujeti, kompozitsion qurilishi o‘ziga xos, barchasi bolalarbop qiziqarli voqealarni o‘z ichiga olishi bilan birga, qurilishining pishiq va puxtaligi yozuvchi asarlarining yuksak badiiyligini ta‘minlagan.

Yozuvchi asarlarining o‘ziga xosligi shundaki, Nosir Fozilov yaratgan asarlarning birortasi bir-birining uslubini, sujet va kompozitsion qurilishini takrorlamaydi, har biri o‘zgacha qurilishga, o‘zgacha ko‘rkka ega asarlardir. Yozuvchining birinchi baxti o‘zini o‘zi takrorlamaganligi bo‘lsa, ikkinchi baxti asarlari bolajonlar qo‘lidən tushmay kelayotganligidir.

Adabiyotlar:

1. Nosir Fozilov. Adabiyot yasalmaydi, yaratiladi. www.kh-davron.uz
2. Nosir Fozilov. Saraton. Toshkent. Sharq. 2006-yil.
3. H.Umurov. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nash. 2004-yil.
4. Nosir Fozilov. Saraton. Qissalar. Qorxat. Toshkent. Sharq. 2006-yil.
5. X.To‘xtaboyev. Sariq devni minib. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2013-yil.
6. X.To‘xtaboyev. Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2006-yil.